

YOSHLARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Boboyeva Feruza Azimjonovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institute magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy adabiyotlarda yoshlarning intellektual sifatlarini shakllantirish muammosining o'rganilishi, yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ijtimoiy-psixologik mexanzmlari muammosining tadqiqotlarda talqini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: fikr, aqliy, kreativlik, shaxs, ahloqiy, mulohaza, g'oya, maqsad, kamolot, taraqqiyot.

Abstract. In this article, the study of the problem of formation of intellectual qualities of young people in scientific literature, the interpretation of the problem of socio-psychological mechanisms of teaching young people to think independently in researches is revealed.

Keywords: thought, intelligence, creativity, personality, ethics, reasoning, idea, purpose, development

Mustaqil fikr yuritishning ro'yobga chiqishida yoshlar fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois yosh avlod o'zining mustaqil fikrlashi, nutqi, ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi.

Bugun dunyoda pedagogika va psixologiyasi fanida aql-zakovat, ya'ni intellekt muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, xuddi shu boisdan iste'dod, qadriyat, ma'naviyat hamda akl-zakovat etnopsixologik nuqtai nazaridan millat ko'z gusi hisoblanadi. Uning qadrsizlanishi esa mazkur jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, xo'jalik, moddiy, maishiy qoloqlik belgisi va tanazzulga yuz tutishi sanaladi. Chunki iste'dod, qobiliyat, talant, aql-zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy va ma'naviy omilidir, binobarin, ma'naviyat mohiyatda esa iqtisodiy, xo'jalik, ilmiy-texnik, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo'ladi. Shu boisdan iste'dod, aql, axloq va ma'naviyatga nisbatan e'tiborning kamayishi yuz bergan ijtimoiy jamiyat hech qachon taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga, fan va texnika rivojiga erisha olmaydi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili - bu barkamol, keng ko'lamlil teran fikrlovchi, bilimdon shaxslarning shakllanishidir.

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomatlari va belgilari to'g'risida materiallar

to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichdan iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi.

Fikr yuritishning mustaqilligi, aqlning sertashabbusligida, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, talaba o'z oldiga yangi muammoni aniq

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining psixologik qarashlarini "Tayr" (qush), "Xayy ibn Yaqzon" (Uyg'oq o'g'li Tirik) kabi qissalarida ifodalab, borliqning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun odamlarni ilmiy-mantiqiy bilishga da'vat etadi. Chunki bu ilm kishi didini o'stiradi, mustaqil fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqda shunday deydi: "Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandir. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarni pinhoni fe'l-atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan". Mantiqiy fikrlashni o'stirish haqida yozar ekan, alloma "Mantiq ilmni egallasa, kishi Bahri muhitda cho'kmaydi" deydi. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlari yuksak insoniylik tamoyillariga, ulug' insonparvarlik g'oyalariga tayanar edi.

Shunday ekan, biz avvalambor intellekt tarixi va iste'dod masalasining qo'yilishi haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Ilmiy manbalarda qayd etilishiga ko'ra, intellekt, **lotincha intellectus** so'zidan olingan bo'lib, u odatda aql-idrok, anglash, tushunish degan ma'noni anglatadi. Intellekt individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir.

Intellektual – so'zining lug'aviy ma'nosi aqliy jihatdan yetuklik, fahm-farosat, aql-idrok, zakovat, zukko ya'ni zakovatli inson, zukko bo'lish demakdir.

Nutqning sharofati bilan fikrlash maxsullarining izchilligi, mantiqiyliigi, tizimlilik paydo bo'lgan, kelajak avlod uchun ma'naviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug'ilgan. Insoniyat tomonidan to'plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qoldirilmaganida, odamzodning fikr yuritishi fan, texnika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutuqlarga erisha olmasdi.

Tafakkur, aql tufayli inson narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi, ya'ni bilimlarni obyektiv voqyelikka mosligini solishtirib ko'radi.

Abu Rayhon Beruniyni fikricha, inson bilish, tushunish, fikrlash, muhokama qilish, o'ylab topish singari iste'dodga egadir. Inson tafakkurini qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshilikni yomondan, haqiqatni esa nohaqiqiylikdan ajratish mumkinligi haqida ta'lim beradi. Beruniy bu narsa har qanday fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. U bilishi lozim bo'lgan

hodisa va voqeyani maydalab bo'lib-bo'lib o'rganish, tahlil qilish metodikasini ilgari suradi.

Fikr yuritishning mustaqilligi, aqlning sertashabbusligida, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, yoshlar o'z oldiga yangi muammoni aniq maqsad, yaqqol vazifa qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda nihoyasiga yetkazishga, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishi nazarda tutiladi.

Buyuk olim Abu Nasr Forobiy (873-950) aql orqali, tafakkur yordamida bilim olishning o'ziga xos mustaqil izlanish va fikr yuritish xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Uning asarlarida tafakkur mavjudlikka, umumiylikka, bivositalikka, ya'ni sezgilari orqali bilish xususiyatiga ega, deb tushuntiriladi. Forobiy ta'limotiga ko'ra, tafakkur (aql) orqali inson materiyaning sezgilarga noma'lum bo'lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, fan tizimidagi bilimlarga ega bo'ladi va inson mustaqil fikr yuritishga qodir bo'ladi deb ta'riflanadi. Forobiy "Aql to'g'risida"gi risolasida o'zida 12 xislatni birlashtirgan kishigina ahloqiy odam bo'ladi, deydi. "Ulardan beshinchisi – so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon bayon eta olsin" – kabi xislatdir. Aynan shu fikrlar buyuk ajdodimiz ham shaxsning mustaqil fikrlashi – uning muhim fazilati ekanligini ta'kidlaganligini ko'rsatmoqda. Forobiyning mustaqil fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi davrga qadar o'z ahamiyatini saqlaganki, hozirgi mustaqillik davrida yoshlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga nazariy asos bo'ladi.

Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiqot qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmasdan, balki bu muammo qadimgi davrlardan beri mutafakkir, ma'rifatparvar olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgandir. Xatto mazkur masala antik dunyoda yashab, ijod etgan atoqli faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, aql inson ruhining oliy, shuning bilan birga uziga xos aqilli tarkibi bo'lib, Platon va Aristotellar olam xamda borliqni bilishning eng maqbul yo'li ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

O'rta asrga kelib, «Intellekt» tushunchasining mazmuni va mohiyati ilm-fan mahsullariga asoslangan holda yanada kengayadi, yangicha alomatlar bilan boyib bordi. Masalan: o'sha davrdagi keng tarqalgan mashxur faylasuf Kantning ta'limotiga binoan «Intellekt» (nemizcha – verstand) – bu bizdagi mavjud barcha tushunchalar tuzilishining strukturaviy bilish qobiliyatlaridandir.

Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda, uni talqin qilishda olimlar o'rtasida 2 xil qarash mavjud bo'lgan:

I. 1-guruh vakillarining qarashicha, intellektual xususiyatlar odamlarga nasliy yo'li bilan ota-onalar tomonidan beriladi.

II. 2-guruh nomoyondalari esa intellektni irodasining tezligi va tashqi qo'zgatuvchilariga nisbatan munosabati bilan bog'lab tushuntiradilar.

Jahon fanlari sistemasida intellektni urganish o'tgan asrning oxirlardan e'tiboran jiddiy ravishda e'tibor bera boshlangan. Mazkur muammoni tadqiq etishda fransuz psixologi A.Bine intellektni jahon maydoniga olib chiqdi va u o'z g'oyasini amaliyotda sinash uchun shogirdi T.Simon bilan yoshlar intellektining rivojlanish darajasini o'lchash uchun psixologik testlarni ishlab chiqdilar. Ulardan keyin bir qator shakl va ko'rinishga ega bo'lgan testlar vujudga keldi. Turli shakl va ko'rinishdagi testlar tizimining paydo bo'lishi yangidan-yangi tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Shu sababdan 20- yillarda test tadqiqotlari butun dunyoga keng tarqala bordi, oqibatda standartlashtirilgan testlar o'quvchilarni qobiliyatiga ko'ra, muayyan guruxlarda saralashda katta yordam ko'rsata boshladi.

20–30 yillarda intellekt bilan eng samarali shug'ullangan tadqiqotchilar to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval mashhur psixolog S.L.Rubinshteynning va L.S.Vigotskiy nomi alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Ular ta'lim va taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasiga to'xtalib, ta'lim hamma vaqt taraqqiyotdan oldinda borishi to'g'risidagi xulosani ilgari surdi, shu bilan u Saxarov V.R. bilan birga o'quvchilar aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlashning muhim metodikasini ishlab chiqdilar. Ular bu metodikani «Sun'iy tushunchalar» ni shakllantirish metodi deb atadilar.

Yirik psixologlardan biri sanalgan ye. N.Kabanova – Mellerning bu sohadagi izlanishlari o'ziga xosligi bilan boshqa tadqiqotchilardan keskin ajralib turadi. U taqqoslash, mavhumlashtirish va umumlashtirish kabi fikr yuritish usullarini o'quvchilarda tarkib toptirish hamda ularni faoliyat sub'ektlari tomonidan yangi vaziyatga, yangi sharoitga ko'chirish natijasida saboq oluvchilar aqliy taraqqiyotida siljish vujudga keladi, degan g'oyani ilgari surdi.

F.YA.Baykov va A.L.Vengerlarning tadqiqotlarida ham yoshlar ijodkorligi, intuitsiya, diskursiv fikrlash “harakat va tafakkur” tizimida tahlil qilingan. YA.A.Ponomarev izlanishlarida ta'lim sharoitida yoshlar ijodkorligi kompleks psixologik hodisa sifatida ajratilgan. YA.A.Ponomarevning fikricha, ichki intilish, his-tuyg'u, emotsiyalarga boy kishigina ijod qila oladi. Fikrlash topshiriqli holatda paydo bo'ladi.

Intellekt muammosini tadqiqot qilishda amerikalik psixologlar boshqa psixik maktablardan farqli o'laroq asosiy diqqat e'tiborini quyidagi masalalarga qaratadilar:

1. Intellektning yosh davriga bog'liqligi.
2. Jinsga va dunyoga kelish tartibga aloqadorligi.
3. Etnos, elat millatga taalluqligi.
4. Oilaning ijtimoiy- iqtisodiy statusiga bog'liqligi.
5. Ota-onalarning ma'lumotligi va boshqalar.

Shunday qilib, aqliy taraqqiyot muammosi yuzasidan xilma-xil konsepsiyalar, nazariyalar, yo'nalishlar, qarashlar, yondashishlar, turli jabhalar va jihatlar, lahzalar mavjud bo'lishiga qaramasdan, psixolog olimlar barcha yoshdagi o'quvchilarning aqliy taraqqiyot darajalarini aniqlash bo'yicha oqil yo'l-yo'riqlar va usullarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib intellekt va ma'naviy intellekt muammosi chet el va sobiq sovet hamda O'zbekistonda juda keng o'rganilgan bo'lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shuningdek yoshlarni ajdodlarimizning tarbiyaviy ruhida kamol topdirsak, mustaqil fikrlash mexanizmini to'g'ri shakllantirishni yo'lga qo'ysakkina yoshlarda mustaqil hayot uchun erkin harakat va faol jarayon yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar.

1. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. M., 1987 yil.
2. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: Sharq, 2000.- 16 b
3. Bromley Yu.V. Etnik va etnografiya. M. 1983 yil
4. Dashdamirov A.F. Natsiya va shaxsiyat. Boku, 1988 yil
5. Stefanenko T.G. Etnopsixologiya. M. 1999 yil
6. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruxiyat. T. 1992 y.
7. Akramova Sh. "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish" "Muharrir" nashriyoti T.: 2012,-126 b.
8. Anvarova D.M "O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasi. T.: 2012, - 129 b.
9. Baratov Sh.R., Jabborov X.X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari /O'quv qo'llanma, Buxoro, 2017, "Durдона" nashr. 190 b.
- 10.. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq.-2000.- 112 b